

TAFAKKUR JARAYONINI ILMIY PSIXOLOGIK O'RGANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7809533>

Toshboltaeva Nodira Ibroximjonovna

Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Farg'ona, O'zbekiston

Mavzuning dolzarbliги.

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyadagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po'stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi sababli mazkur bog'lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o'tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir. Tafakkurning muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv-fiziologik asos bo'lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Akademik I.P.Pavlov ta'kidlaganidek, "avvalo umuminsoniy empirizmni nihoyat, atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy oliy tafakkur zarurdir".

Kirish.

Tafakkur – inson akliy faoliyatining yuksak shakli, ob'ektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarini, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarta qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat.

Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilalar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida

insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi.

Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi.

Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqe va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega. Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya) ning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha turlarga (ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali, obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h. k.) ajratib tadqiq qilinadi.

Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi.

Jamoada tanqidiy qarash, o'zini o'zi tanqid, baholash, tekshirish, o'zini o'zi tekshirish, nazorat qilish, o'zini o'zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtiolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo'lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o'rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko'p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda.

Ijodiy tafakkur murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda, izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi: dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani yechish yoki savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala-bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo'lgan savolning ifodasıdır. Namoyon bo'lgan vazifa (masala) ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsadni ham o'zida aks ettirib keladi. Maqsad esa

insonning izlanayotgan noma'lum voqelikni topishga guman va hayajon, shubha hislardan forig' etishga qaratilgan maylidir.

Tafakkurning izlanish bosqichlarida vujudga kelgan masalaning ifodalanishi har-xil darajada bo'lishi mumkin. Jumladan, voqelikning nimalari ma'lumki, nimalari yana noma'lum, ularni aniqlash, qay holatda va qaysi yo'l bilan yechilishi mumkin, uning turmush uchun qanday ahamiyati bor, singari jihatlarini aniqlashga to'g'ri keladi. Ijodiy tafakkurning navbatdagi komponentlari quyidagicha aks ettiriladi: qo'yilagi savollarga javob izlash, masalani yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ularni tatbiq qilish va boshqalar. Inson ushbu konkret holdagi vazifani bajarish uchun qo'yilgan savollarga beriladigan javoblarni ayrim paytlarda tevarak-muhitdagi ob'ektlardan topishga harakat qiladi. Mazkur holatning samaradorligi ko'p jihatdan uning kuzatuvchanligi va sinchkovlik sifatlariga bog'liq.

Ayrim hollarda berilgan savollarga javoblarni to'plangan tajriba va yig'ilgan bilim fondidan topish ko'zga tashlanadi Masalan, imtihon topshirayotgan talabaning fikr yuritishi, mulohazasi va xulosa chiqarishi xuddi ana shunday tarzda namoyon bo'ladi.

Ijodiy tafakkur ijodiy xayol bilan uzviy aloqada bo'ladi. Shuning uchun inson amaliy faoliyatida bir talay savollarga javoblarni xayol yordami bilan topadi. Jumladan, turli taxminlar, farazlar, ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, texnika sohasidagi ixtiolar ham aynan shu yo'sinda amalga oshadi, ya'ni xayol yordami bilan zarur natijalarga erishiladi. Shuningdek, ijodiy tafakkur jarayonida ba'zi bir vazifalarni hal qilish, bajarish, muhokama yuritish, mulohaza qilish, fikrlash, faraz qilish singari jarayonlar mantiqiy fikr yuritish usullari va vositalarini qo'llash yo'li bilan nihoyasiga yetkaziladi. Masalan, matematika, fizika kabi fan asoslarini o'zlashtirishda xuddi shunday holat ro'y beradi.

Ijodiy fikr yuritish jarayonida goho kamchilik va xatolarga yo'l qo'yiladi. Natijada olingan javoblar yoki qo'llanilgan vositalarda shubhalanish hissi paydo bo'ladi. Oqibatda natijalarni tanqidiy tekshirish masalani hal qilish bilan parallel ravishda namoyon bo'lishi mumkin. Odatta, ushbu hollarda fikr yuritishning mantiqiy jihatlari hukm va xulosa chiqarish, isbotlash, dalillash, asoslash, rad qilish, inkor etish kabilar ijodiy tafakkur asosini tashkil qiladi.

Ijodiy tafakkur jarayonida inson masalani hal qilishda o'zgalarning yordamiga tayanib ish ko'radi. Ayrim hollarda masala yoki topshiriqni hal qilish, yechish vaqtida ijodiy tafakkur shaxslararo munosabatda, muloqatdagi voqealari bo'ladi.

Muloqot esa fikr almashish, suhbatlashish, muhokama qilish, bahslashish, isbotlash, dalillash kabi mantiqiy usullardan tashkil topadi.

Xulosa.

Fan va texnika taraqqiyoti tarixining ko'rsatishiga qaraganda, yirik ilmiy kashfiyotlar, falsafiy mushohadalar, ilmiy nazariyalar, konstruktiv ijodlarning aksariyati ulug' kishilar tomonidan ijtimoiy tafakkurning mahsuli sifatida, kollektiv tafakkuri natijasi tariqasida dunyo yuzini ko'rgan. Demak, ijodiy tafakkur avlodlarning aql-zakovati durdonalarining sistemalashishi natijasida voqelikni yangilik elementi bilan boyitadi, xolos.

Ijodiy tafakkur bilan masala yechish o'zaro uzviy bog'langan bilish jarayonidir. Lekin ijodiy tafakkurni masala vositasiga aylantirib yuborish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ularning nozik jihatlarini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, masalani hal qilish, yechish faqat tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi, chunki bunda hech qanday o'zgacha yo'l bo'lishi mumkin emas va bo'lmaydi ham. O'z navbatida tafakkur masala yechish vaqtidagina vujudga keladi. Shu boisdan yangi masala qo'yishda, yangi muammolarni barpo qilishda, ularning inson tomonidan (o'zgalar) anglab yetilishida va boshqa hollarda asosiy rol o'ynaydi. Binobarin, ijodiy tafakkur faqat muammoni hal qilish bilangina bog'liq bo'lmasdan, balki bilimlarni egallash, matnlarni tushunish, narsa hamda hodisalarни tanqidiy jihatdan tahlil qilish va hokazolarda ham juda zarurdir.

Ijodiy tafakkur jarayoni mavjud bilimlarga, bog'liqdir. Shu narsani alohida qayd qilib o'tish kerakki, o'zaro aloqa qilishda tafakkur muhimroq, mavqeliroq o'rinn tutadi. Hozirgi zamon ta'lim jarayoni oldida turgan asosiy maqsad, o'quvchi yoki talaba shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o'rgatishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Нишанова З., Эргашев П. Олий мактаб психологияси. - Т.: Низомий номидаги Тошкент педагогика университети нашриёти, 2008. -340-б.
2. Салахутдинова М. Ижод психологияси. - Самарқанд: СамДУ, 2005. -80-
5. Гозиев Э. Умумий психология. Дарслик. - Т.: Ўзбекистон файласуфлари милий жамияти нашриёти, 2001. -510-б.
3. Тошболтаева Нодира Иброҳимжоновна //ШАҲС ТАРАҚҚИЁТИДА ТАФАККУРНИНГ АҲАМИЯТЛИЛИГИ МАСАЛАЛАРИ// Международный

научный журнал «Научный импульс». № 5 (100), часть 2. Декабрь, 2022. 196-199 стр.

4. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДА ШАХСНИ ТАРАККИЙ ЭТИШИ// JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December). 472-475.

5. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна, Тошболтаев Салохиддин Хамидуллаевич //МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЖАРАЁНИНИ ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ТАҲЛИЛИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 6 (100), часть 2. январь, 2023 г. 114-118 стр.

6. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna //The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences.January 10 th,2022. 69-70

7. Ibrokhimjonovna T.N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 03. – С. 1-2.

8. Тошболтаева, Нодира Иброхимжоновна. "Важные аспекты упражнений в умственной деятельности психологическая интерпретация." INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION 1.5 (2020): 97-99.

9. O.R.Parpiyeva, Ostanaqulov A.D //SCHIZOPHRENIA DISEASE// Международный научно-практический журнал "Теория и практика современной науки" Выпуск №6 (48) – 2019. 18-21 page

10. O.R Parpiyeva, Ostanaqulov A.D //Thoughts that do not go away from the brain// Международный научно-практический журнал "Мировая наука". Выпуск № 6 (27) – 2019. 9-12 стр

11. А.Абдулаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҶМИЛЛОВЧИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. 23 rd January, 2023. – Canada, Ottawa. 136-140 pages.

12. Абдулаева А.Р. //ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И МУНИЦИПАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ// Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 6. – С. 26-29.

13. Rustamovna A.A. //BO'LAJAK HARBIY KADRLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILAVIY MUHIT TA'SIRINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI// - 2022.
14. Рустамовна А.А. //СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СЕМЕЙНОЕ ОКРУЖЕНИЕ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ БУДУЩИХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ// Зона конференций. - 2022. - С. 43-45.
15. Абдуллаева А. //ОИЛАНИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ФАКТОРЛАРНИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// МУАЛЛИМ ЖУРНАЛИ. 11 ЖИЛД. 2022 ЙИЛ.
16. А.Р.Абдуллаева //ОИЛАДА АЖРИМЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НИКОҲ МОТИВЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 14-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.12.2022. 1132-1138 бетлар.
17. G'aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 pages.
18. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 pages.
19. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna, Tojimamatov Jamshid //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 1053-1058 pages.
20. Mirzajonova E., Kiselev S. Motor sequencing training has a positive effect on sensorimotor functions in preschool children //Psychophysiology. - 2020. - т. 57. - с. s71-s71.
21. Мирзажонова Э. Т. и др. Системность социокультурной адаптации детей с особыми потребностями как условие эффективности //Актуальные вопросы современной психологии, конфликтологии и управления: взгляд молодых исследователей. - 2020. - С. 5-15.
22. Mirzajonova E., Kiselev S. Weakness of Memory in Delayed Recall Condition is Specific Deficit in Children with ADHD //Annals of Neurology. - 2020. - Т. 88. - С. S69-S69.

23. Mirzajonova E., Kiselev S. AGE-RELATED DIFFERENCES IN VISUAL OBJECT RECOGNITION IN CHILDREN //Psychophysiology. - 2020. - T. 57. - C. S38-S38.
24. Mirzajonova E., Kiselev S. Child with hemorrhagic stroke in the right fronto-parieto-temporal area benefited from visuospatial therapy //Quality of life research. - 2020. - T. 29. - №. SUPPL 1. - C. S189-S189.
25. Mirzajonova E., Kiselev S. Yoga training as an effective approach for improving the executive abilities in children with ADHD //Quality of life research. - 2020. - T. 29. - №. SUPPL 1. - C. S183-S183.
26. Alimova Iroda Anvarovna, Raimova Zulfiyakhan Makhamatjonovna //EARLY INTERVENTION TECHNOLOGIES AND MEDICAL SKILLS IN CHILDREN WITH PERINATAL ENCEPHALOPATHY// *World Bulletin of Social Sciences*, 18, 76-78.
27. Алимова Ирода Анваровна, Ахмедова Матлуба Мухаммаджоновна, Абдухалиева Гулчехра Мамировна, Пулатов Рузимухаммад //КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, ТЕЧЕНИЕ КОРОНОВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ, ОСЛОЖНЕНИЯ И ХАРАКТЕР ПОСТКОВИДНОГО СИНДРОМА У ДЕТЕЙ Г. ФЕРГАНЫ// Международный научный журнал «Научный импульс» № 4 (100), часть 2. Ноябрь, 2022. 61-69 стр.
28. Алимова Ирода Анваровна, Пулатов Рузимухаммад //СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СЛУЖБЫ РАННЕЙ МЕДИКО-РЕАБИЛИТАЦИОННОЙ, ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ, СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЙ ПОМОЩИ ДЕТЬЯМ СОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследования в XXI веке» №4(100), часть1. ноябрь, 2022 г. 220-227 стр.
29. Алимова И.А., Райимова З.М., Бабаджанова Х.М. //АКТУАЛЬНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ СЛУЖБЫ РАННЕГО ВМЕШАТЕЛЬСТВА В СЕМЕЙНЫЕ ПОЛИКЛИНИКИ ДЕТЬЯМ РАННЕГО ВОЗРАСТА// "JOURNAL OF CLINICAL AND PREVENTIVE MEDICINE" 2022. № 2. 5-11 pages.
30. Alimova Iroda Anvarovna, Babadjanova Khursanoy Melibaevna //JUVENILE IDIOPATHIC ARTHRITIS// SCIENTIFIC JOURNAL OF RESEARCH IN MEDICINE (SJRM). Volume 1 Issue 4 October 2022. 6-8 pages.
31. Alimova Iroda Anvarovna, Raiimova Zulfiya Mahamatjonovna //Physical rehabilitation and Rehabilitation of Children with Cerebral Palsy, Organization of

Psychological Services Parent Support// Texas Journal of Medical Science. 08-03-2023. 6-12 pages.